



ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

"Dunyoning ishlari", "O'tkir Hoshimov, qissa, mo'tabar, sharqona ayol.

O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" "QISSASIDA ONA OBRAZI

¹ Izbosarova Aziza, ² Xushanov Alisher Oydin o'g'li

¹ Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti 1-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7228218>

ABSTRACT

Ushbu maqolada adib O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi va unda azob-uqubatlarga jonini fido qilishga tayyor, odob-axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, sharqona ayol math etilgan.

O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentda Do'mbirod mahallasida tavallud topgan. Bolaligidan ilimga, adabiyotga, san'atga qiziqqan bo'lajak yozuvchi she'r mashq qila boshlagan birinchi kitobi talabalik yillarida chop etilgan. Bolalik yillari muhtojlik urush qiyinchiliklar davrida yashagan O'tkir Hoshimov hayot qazonida qaynagan, hayotdan bir qadam ajramay qalam tebratdi. Yozuvchi hayoti davomida amaliy ijodiy ishni teng olib borgan ijodkordir. Maktabni bitirgach, xat tashuvchi, musahhih, muxbir gazeta bo'lim mudiri nashriyotda va jurnallarda bosh muharrir kabi lavozimlarda ishlaydi. Keyingi yillarda xalq deputatligiga saylangan adib Oliy majlis qo'mita raisi lavozimida ham faoliyat ko'rsatgan bir muddat bolsada adabiy ijod bilan aloqani ozganing yoq yozuvchining qator kitoblari maqolalari publistik asarlari chop etilgan. O'tkir Hoshimovning "Urushning so'ngi qurboni", Muhabbat" kabi ko'plab hikoyalari, "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi" "Tushda kechgan

umrlar" nomli ramalari," "Odamlar nima derkin"," Shamol esaveradi"," Ikki karra ikki besh"," Bahor qaytmaydi ","Dunyoning ishlari" nomli qissalari," Daftari hoshiyasidagi bitiklar" nomli asarlari respublikamiz va xorijda sevib o'qilmoqda. O'zbekiston yozuvchisi, o'tkir nafasli jurnalist, jonkuyar adib, dastlabki, qissasi bilanoq yirik adib Abdulla Qahhorning nazariga tushgan. O'tkir hoshimovning "Cho'l havosi" asarini o'qigan adib yozuvchiga maktub bitib asar suyintirib yuborganini aytgan. Inson samimiy rohat qilib o'qiladigan asar yozgani bilan muborakbod etadi. Adibning ajdodlariga nazar solsak, bobokaloni bobosining otalari-Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida o'ziga xos iz qoldirgan shaxslardandir. Toshkentda" Xalqlar do'stligi" san'at saroyi yaqinida madrasa bor. Bu qadimiy madrasada o'tgan asr boshlarida Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, G'ulom Zafariy kabi ulug' zotlar ta'lim olgan. Madrasa bir yarim asr oldin bobosining otalari-Abulqosimxon eshon tomonidan



qurilgan. Bu inson o'zbek, arab, fors, rus tillarini bilgan.

Otasi Atoulloxon Hoshimov tazyiqlardan bezor bo'lib, qishloqqa Do'mbirabotga ko'chib kelgan. Biroq, tazyiqlar to'xtamagan. Dehqonchilik qilgan To'qimachilik kombinati da va shu konbinantga tegishli oromgohda ishlagan. Otasi zamonaviy adabiyot gazetalar ni ham borar, o'ta haqiqatparast, nohaqlikni ko'rsa yonib ketardi.

Onasi Hakima Hoshimova esa otasining aksi nihoyatda yuvosh juda mehribon bo'lgan. O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal yaratgan yozuvchilar bor. Biroq, O'tkir Hoshimov uni eng yuqori darajaga olib chiqqan ijodkordir. Adib ona obrazini yaratishda Panama pog'ana bosib o'tilgan "Dunyoning ishlari" qissasi, "Urushning so'ngi qurboni" hikoyasi, "Tushda kechgan umrlar" romanlarini yaratishda lirik ifoda epik yo'nalish tariqasida shakillangan. Darhaqiqat, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi har biri o'ziga xos sujjetli hikoyalardan iborat. Zeroki, dunyoda eng bebaho ne'mat, Ona mehridir. "Dunyoning ishlari" qissasida bosh qahramon mehribon, jonkuyar onalardan biridir. Bu asar katta-kichik hikoyalardan tashkil topgan. Ammo, ularning barchasida biz uchun Aziz bo'lgan -ona siymosi bordir. Bu asar hayotiy voqealıklar asosida yozilgan. Bu qissaning qaysidir qismati onalarimizga bog'langan. Dunyodagi barcha onalar farzandiga munosabati bir-biriga o'xshaydi. Bas, shunday ekan "Dunyoning ishlari" sizlarga bag'ishlangan mo'tabar Onajonlar.

Bu qissa haqida O'zbekiston Qahramoni Said Ahmat "Ijod va jasorat" asarida shunday ta'riflaydi: "Dunyoning ishlari" qissa emas, dostondir. Asar qo'shiqday o'qiladi. Bu asarni o'qisak ota-

onalarimizni o'ylaymiz. Shu mo'tabar, shu mehribon, onalarimiz oldida bir umr uzib bo'lmas qarzarimizni aqalli bittasini uza olamizmi?"- degan savol o'ylaymiz. Qissa bizni insofqa, insonni qadrlashga hurmat qilishga chaqiradi. Demak, "Dunyoning ishlari" qissasining yaratilish uslubi Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" Oybekning "Bolalik" asarlariga o'xshab ketadi. Dunyodagi eng bebaho ne'mat -Ona mehridir. "Dunyoning ishlari" qissasidagi bosh qahramon mehribon onalardan biri. Xususan, al-Buxoriy hadislarida keltirilganidek, "Abu Hurayra roziallohu anhu rivoyat qiladi: "Bir odam Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilmog'imga kim haqliroq?- deya uch marta so'radi . Janob Rasululloh: "Onang" deb javob berdi. U : "Yana kim?- deb so'radi. Janob Rasululloh (bu safar): "Otang!" deb javob qildilar". Ona obrazining yaratilish bosqichi 1972-yilda yozilgan "Urushning so'ngi qurboni" hikoyasidir. Aslida buni yuqori baholash darkor. Bu asardan so'ng "Dunyoning ishlari" yoziladi. Bu asar ancha mukammalligi bilan ajralib turadi. Undan ko'p o'tmay "Ikki eshik orasi" asari davomi bo'ladi deyish joizdir. "Dunyoning ishlari" qissasida sharqona ayollarga lirik haykal qo'yildi. "Tushda kechgan umrlar" asaridagi Qurbonboy xola obrazi mantiqqa to'g'ri keladi. U oddiygina oilasini halol mehnat bilan boqadi. Hayotning achchiq zarbasiga uchraydi. Ota-onasidan erta yetim qolgan asar qahramoni. "Ikki eshik orasi" romanidagi Qora amma obrazi g'amli Ona haykali. U farzandini yillar davomida kutadi. Bu asarlarda asosiy aybdor -urush va uning salbiy asoratidir. "Dunyoning qissasi nihoyatda yorqin tarzda yozilgan. O'zbek adabiyotida ona obrazining



go'zal yaratgan yozuvchilar bor. Biroq, O'tkir Hoshimov uni eng yuqori darajaga olib chiqqan ijodkordir. Adib ona obrazini yaratishda Panama pog'ana bosib o'tilgan "Dunyoning ishlari" qissasi, "Urushning so'ngi qurboni hikoyasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlarini yaratishda lirik ifoda epik yo'nalish tariqasida shakillangan. Darhaqiqat, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi har biri o'ziga xos sujetli hikoyalardan iborat. Zeroki, dunyoda eng bebaho ne'mat, Ona mehridir. "Dunyoning ishlari" qissasida bosh qahramon mehribon, jonkuyar onalardan biridir. Bu asar katta-kichik hikoyalardan tashkil topgan. Ammo, ularning barchasida biz uchun Aziz bo'lgan -ona siymosi bordir. Bu asar hayotiy voqealıklar asosida yozilgan. Bu qissaning qaysidir qismati onalarimizga bog'langan. Dunyodagi barcha onalar farzandiga munosabati bir-biriga o'xshaydi. Bas, shunday ekan "Dunyoning ishlari" sizlarga bag'ishlangan mo'tabar Onajonlar.

Qissadagi "Tush", "Oq oydin kechalar", "Gilam paypoq", "Oltin baldoq", "Iltijo", "Qanoat", "O'ris bolaning oyisi" kabi hikoyalar kishini befarq qoldirmaydi. "Oq, oydin kechalar" hikoyasida iliq yoz kechalari ko'z oldimizga keladi.

Oymomoxon xilla.

Qanotlari tilla.

Subxon allo sizga,

Umur bersin bizga.

Qarang oyi: Yettinchi og'ayni o'rtasidagi eng katta yulduz meniki dedi. Onasi bo'lsa to'rtinchi yulduz meniki bu yetim yulduz. Yetimlarga rahm qilish kerak deydi. Hadisi sharifda Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladiki: "Rasululloh sollallohu alayhi

vassalam: "Men va yetimni kafilini olgan odam ikkalamiz jannatda yonma-yon yashimiz", degan ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini ko'rsatganlar. Onalarimiz mehrlari daryoki qancha ta'riflasak oz. Hatto Hikoyalarda farzandi uchun har qanday mashaqqatlarga jonini fido qilishga tayyor bo'lgan sharqona ayol aks etilgan. Ona uchun dunyodagi eng aziz ne'mat qizmi-o'g'ilmi uning farzandidir. Hatto jonini fido qilishga tayyor. "Dunyoning ishlari" qissasini sevib o'qiydiz. Qalbimizdan chuqur o'rin eggalagan qissa sifatida qadrlı. Oldin bir haqiqatni bilardim Ona uchun bolaning katta kichigi bo'lmaydi hozir yana bir haqiqatni tushundim. Bola uchun ham onaning katta kichigi bo'lmaydi. Ona-ona ekan. Farzandim deb yashaydi, o'zi qiynalsa ham farzandini o'ylaydi. Mana sharqona ayollarimizning mehribon, dilkashligi. Albatta bir narsani aniq aytishim mumkinki, onalarimizning tirik ekanki-baribir farzandlarini maqtaydi. Dard cheksa yupatadi. Onalar hatto vafot etganidan keyin ham onaligicha qoladi.

Oq uy-ola burgaklarda jonima,

Yonib turgan chirog'imsan, alla.....

Balki dunyoning bir chekkasida turgan odamning aytgan qo'shig'ini, dunyoning narigi chetida turgan odam tushunmas. Biroq, Dunyoning bu chekkasida turib aytgan eng dono fikrni, dunyoning chekkasidagi odam tushunmaydi. Ammo dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak uyda bemalol orom oladi. Onalarimiz alla aytar ekan, farzandi yetuk, mehribon inson bo'lishini xohlaydi.

Nega shunday? Nahotki go'dak tushungan narsaga biz tushunmasdan. Shu sababli ham ona tabiatning eng buyuk ixtirosidir.

References:



1. S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo`chqarov, Sh.Rizayev. "5-sinf adabiyot", "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2020.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/otkir-hoshimov-dunyoning-ishlari-asardan-osti-chizilgan-parchalar.html>